

JAMIYAT HAYOTIDA URF-ODATLARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Baxromjon Boqijonovich Inatullayev
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat ijtimoiy hayotida urf-odat va an'analarning mazmuni hamda ahamiyati, ularning ijtimoiy munosabatlarni shakllanishi va milliy tarbiya tizimiga ta'siri atroflicha tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: jamiyat, xalq, urf-odat, an'ana, qadriyat, marosim, oila, doʻstlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, doʻstlik, jasorat, mehmondoʻstlik, bolajonlik

SOCIAL SIGNIFICANCE OF CUSTOMS IN COMMUNITY LIFE

Bakhromjon Bakijonovich Inatullaev
Namangan State University

Abstract: In this article, the content and importance of customs and traditions in the social life of the society, their influence on the formation of social relations and the national education system are thoroughly analyzed.

Keywords: society, people, custom, tradition, value, ceremony, family, friendship, hard work, patriotism, humanitarianism, friendship, courage, hospitality, childishness

Yangi O'zbekistonda turmush va tarbiya jarayonida an'ana, urf-odat va marosimlar masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqil Respublika fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ular ongida ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishda, urf-odat, an'ana va marosimlar ta'sirchan vositalardan biri bo'lib qoldi. Ijtimoiy taraqqiyotda kishilarning urf-odat va marosimlari shakllandi. Chunki ular muayyan g'oyalar, qarashlar, axloq normalarini ifodalaydi. Ilg'or an'analar, urf-odat va marosimlar jamiyatimiz hayotida, kundalik turmushimizda, mehnat va ishlab chiqarishda, ilmiy va badiiy ijodda, oila va o'quv dargohlariga tarbiyaviy ishlarimizda, shaxsiy xulq-atvorda o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni o'taydi.

Xalq va jamiyat o'z ehtiyojlariga yarasha an'ana, urf-odat, marosim va rasm-rusumlarni yaratish ekan, doimo nafosat va go'zallik qonunlariga, qahramonlik va ulug'vorlik, ijtimoiy hamjihatlik prinsiplariga qat'iy amal qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimizning unutilayozgan an'analari, marosimlari va urf-odatlari yana hayotga qaytarildi. Ular xalqimiz turmushidagi unutilmas hodisalarni o'z negizida mujassamlashtirdi. Shuning uchun

Respublikamiz hukumati xalqimizning hayotga tarixan singib kelayotgan an'ana, marosim va urf-odatlarini qaytadan qaror toptirishga doimo ahamiyat bermoqda. Urf-odat va marosimlar barqaror bo'lishiga qaramay, yangi davr, yangi tuzum ehtiyojlariga muvofiq o'zgarib boradi. Mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik. Jasorat, mehmondo'stlik, bolajonlik singari an'analar mamlakatimiz hududida azaldan mavjud. Ammo bu an'analar mustaqillikka erishganimizdan keyin yangi ma'no kasb etmoqda.

An'analar, urf-odat va marosimlar shaklida namoyon bo'ladi. Urf-odat nisbatan o'xshash, ma'lum darajada takrorlanib turadigan holatlarda muayyan xatti-harakatlarning aynan takrorlanishi, unga so'zsiz amal qilinishini bildiradi.

Kishilarimizning shaxsiy va oilaviy hayotida sodir bo'ladigan unutilmas voqealarni, yaxshi kunlarni xursandchilik nishonlashga bo'lgan intilishlari yangi-yangi an'ana va marosimlarni yuzaga keltirmoqda. Chunonchi, kishi hayotida eng muhim davrlar - tug'ilgan kun, maktabga borish, balog'atga etish, nikohdan o'tish va shu kabilar fuqarolik marosimlari saqlanib, ularning har biri kishi oldiga yangi talablar qo'yadi, yangi huquqlar beradi va nihoyat uning jismoniy va aqliy kamolotiga etishida muhim bosqich bo'lib hizmat qiladi. Barcha marosim va bayramlarning ana shu tomonlariga alohida e'tibor berish ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Urf-odatlar ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos amaliy negizidir. Ular turg'un va barqaror xarakterga ega bo'lib, ayrim yoki yakka shaxslar tomonidan emas, balki ko'pchilik tomonidan ro'yobga chiqariladi. Masalan, ota-onaga hurmat, keksalarga ehtirom, mehmondo'stlik kabilar xalqimizning asosiy urf-odatlaridan bo'lib, bularga xalq an'analarning bir ko'rinishi sifatida amal qilinadi. Marosim tushunchasi muayyan so'z va harakatlarning qaytarilishini bildiradi, lekin bunda so'z va harakatlar shartli ramziylik kasb etadi. Urf-odatlarda so'z va harakatlar moddiylashgan bo'lsa, marosimlarda moddiy olamning, predmetlarning o'rnini shartli-harakatlar, so'zlar, tasvirlar egallashi mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, marosimlar, urf-odatlarining barqarorlashgan shaklidir. Marosimlar ichki yaxlitlilik, kompozitsion birlilik, shaklan bejirimlikka ega bo'ladi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri nazokat va latofatligidir. Masalan, hosil bayramlarini, paxta bayramini, gul va bahor bayramlarini, uzum, qovun sayllarini, nikoh to'ylari marosimlarini olaylik. Bu sayl va bayramlar shodlik, to'kin-sochinlik, nafosat tantanasi sifatida amalga oshiriladi. [1.-B. 79.]

Bir butun marosim bir-biriga bog'liq bo'lgan bir qancha kichik marosimlarni, urf-odatlarini o'z ichiga oladi. Bular marosimchilik deb ataladi.

"Rasm-rusum" tushunchasi marosimchilik urf-odatlari doirasiga mansub bo'lgan konkret so'z va harakat shakllarini, ularning o'zaro bir-biriga nisbatan bo'lgan rolini, joyini, munosabatini anglatadi. Demak, rasm-rusumlar marosimchilik va urf-

odatlarining namoyon bo'lish shaklidir. Masalan: to'y, mehmon kutish, dafn bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlar umumiy tomonlar bilan bir qatorda har bir erda, har bir millatda so'z va harakatlar bilan ajralib turadigan o'ziga xos tomonlarga, ya'ni rasm-rusumlarga ham egadir.

Hashar, mehmondo'stlik, mardlik, jasorat, halollik, do'stlik, mehnatsevarlik, san'atsevarlik, turli millatlarga hurmat va qardoshlik kabi an'ana, odatlar qadimiy va ijtimoiy taraqqiyotda ular haqidagi bo'lgani uchun tarixiy ahamiyatga egadir va doimo saqlanib boraveradi.

Masalan, har yili paxta yig'im-terimi paytida umumxalq hashari uyushtiriladi. Gul va bahor bayrami, paxta bayrami, hosil bayrami, hashar, uzum sayli, uloq chopish kabi urf-odatlar esa milliy xarakter kasb etadi.

Azaldan davom etib kelayotgan urf-odatlar, chunonchi, hashar, nikoh marosimlari, navro'z, bahor bayramlari, uzum-qovun sayllari va hokazolar yangicha mazmun kashf etmoqda. Hozirgi kunda chaqaloqlarni tantanali ravishda ro'yxatga olish, yosh go'dakka nom qo'yish, 16 yoshga etgan o'smirlarga pasport topshirish, mehnat faxriylarini tantana bilan nafaqaga kuzatish yangi an'analardandir.

Xalqimizning eng yaxshi, ajoyib milliy an'analari qadimdan davom etib, avlodan-avlodga o'tib, mustaqil yurtimizdagi ijtimoiy munosabatlar shakllanayotgan jamiyatda yangi mazmun kasb etmoqda, boyimoqda, mustaqilligimizni mustahkamlashda yosh avlodni tarbiyalashda hayot maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonlar va avlodlar o'rtasidagi aloqa, an'analari orqali amalga oshiriladi.

Qimmatli urf-odatlar shu an'analardan o'zining to'la ifodasini topadi. Otabobolarimizning donishmandligini aks ettirgan va azaldan oddiy mehnatkashlarga xos bo'lgan olijanob tuyg'ularni e'zozlaydigan xalq urf-odatlari bu an'analari orasida eng faxrli va muhim o'rin tutadi. Shuning uchun xalq an'analari rivojlantirishga obektiv yordam beradigan eng yaxshi, eng qimmatli milliy urf-odat va marosimlarni tanlab olish kerak. Keksalarni, xotin-qizlarni izzat-hurmat qilish, mehmondo'stlik, o'zaro yordam va bolalarga mehr-muhabbat tuyg'ularini ifoda etuvchi an'analari barcha xalqlar hayotida uzoq zamonlardan beri davom etib kelyapti.

Insonning kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan an'analardan kishilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muntazam foydalanish zarur.

Xalqimizning ijobiy an'alaridan biri-keksalarni hurmat qilish juda katta tarbiyaviy hamda ijobiy ahamiyatga ega. Hukumatimiz keksa avlodning xizmatlarini qadrlab kelmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan pensiyalar, juda ko'p imtiyozlar, unvonlar, davolanish, dam olish uchun sanatoriylar, shifoxonalar va boshqa imtiyozlar mustaqil yurtimizning keksalar to'g'risidagi beqiyos g'amxo'rlikining guvohidir.

Odamlarning bir-birlariga mehr-oqibatlari, samimiy, to'g'ri munosabati, iltifoti va ehtiromi mustaqil O'zbekistonimiz fuqarosining ichki go'zalligini, boy ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Milliy an'alarimizning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyatiga

e'tibor beradigan bo'lsak, xalqimizning "Mehmon otangdek ulug'", "Mehmondan ulug' kishi yo'q", "Mehmon kelsa mushugingni ham pisht! dema" degan hikmatlari mehmondo'stlikka undaydi. "Mehmon kirsam eshikdan, rizqi kelar teshikdan" degan iborasi esa har qanday sharoitda ham mehmonni beminnat, samimiy kutib olish kerakligini anglatadi.

Yana bir yaxshi odat-insonparvarlikdir. Chin inson pok qalbli, sofdil, diyonatli, vijdonli, chuqur irodali, oqil kishi bo'lishi bilan birga yurt, Vatan, jamiyat manfaati, tashvishi yo'lida jon fido qiladigan, kishilar osoyishtaligi, tinchligi va baxt-saodati yo'lida doimo qayg'uradigan bo'lmog'i kerak. SHundagina uning haqiqiy insonparvarligi, insoniyligi, boy ma'naviy go'zalligi to'laligi bilan namoyon bo'ladi.

Insonparvarlik - jamiyatimizda qaror topgan, tobora yangi mazmun kasb etayotgan milliy an'analarning yuksak ko'rinishlaridan biridir. Inson mustaqil O'zbekistonda shu zaminda qadr topdi va izzat-hurmat ko'rdi. Respublikamiz hukumatining olib borayotgan siyosatida "Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun" degan g'oya amalga oshirilmoqda.

Insonning oliyjanoblighi, odamiylighi uning tanishga ham, notanishga ham beg'araz yordam qo'lini cho'zishi bilan belgilanadi. Millatimizning turmush tarzi odamlarning bir-biriga do'st, mehribon, g'amxo'r, jonkuyar va hamdard bo'lishidir. Ana shu insoniy fazilatlar bilan jamiyatimiz yanada jipslashmoqda, kamolot yo'lidan bormoqda. Shu borada Qirg'iziston Respublikasi Osh, Qorasuv va boshqa shaharlarida bo'lib o'tgan vaxshiyona xunrezliklarni oqibatida begunoh odamlar oilasidan, uy-joyidan, yaqinlaridan ajradi. O'zbekiston Respublikasi juda katta insonparvarlik ishlarini olib bordi. Oziq-ovqat, yotishga boshpana va hokazolar bo'yicha yordam qo'lini cho'zdi.

Bu borada aytib o'tish kerakki, O'zbekiston xalqi va hukumati insonparvar, mehr-oqibatli, samimiy, diyonatli, kishilar osoyishtaligi, yurt tinchligi yo'lida doimo qayg'uradigan yurt ekanligi yaqqol ko'rindi. Mustaqil yurtimiz fuqarolari qaysi millat yoki xalqqa mansub bo'lmasin, hammasining Vatani bir, maqsadlari, manfaatlari bir. Xalqimizning do'stlashishi - jamiyatimizning ulug'vor kuchidir, bizning juda katta boyligimizdir. Bu do'stlik asosan ikkinchi jahon urushi yillari chiniqdi. O'zbekiston xalqi bir burda nonini boshqalar bilan baham ko'rdi. Xalqimizda "Do'stlik barcha boyliklardan afzal", "Arpa, bug'doy bir kuningga yaraydi, sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi", "Do'st achitib gapirar, dushman - kuldirib", "Do'st - do'stning tayanchi", "Do'st - do'stini kulfatda sinar", "Do'st yomon kunda bilinadi", "Do'stdan molini ayamagan, eldan jonini ayamas" kabi ko'pgina maqollar borki, bularda do'stlikni qadrlash masalasi ifodalangan. Eng yaxshi o'lmas urf-odatlar bora-bora an'anaga aylanadi. Urf-odatlar odamlar turmushidagi ijtimoiy munosabatlarning barqaror bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Salomlashuv burchiga sodiqlik bizda yaxshi an'anaga aylanib qolgan. "Assalomu alaykum - ham qarz, ham farz" maqoli zamirida burchga sodiqlik an'anasi yotadi.

Salomlashuvda mehr-muhabbat, qadr-qimmat, oqibat kabi insoniy xislat aks etib turadi. Salom beruvchi va alik oluvchining qiyofasi shu an'anaviy odat orqali namoyon bo'ladi.

Har bir xalqning urf-odati, qadriyatlari mavjudki, ana shu xalqning ma'naviy omili bo'lib xizmat qiladi. Jumlanadn, o'zining boy tarixiga ega bo'lgan xalqimizning ham o'ziga xos urf-odati, qadriyatlari milliy mentaliteti doirasida shakllangan bo'lib, asrlar davomida ma'naviy qadriyat sifatida avloddan-avlodga o'tib keladi. Buni biz oilada mavjud bo'lgan tarbiyaviy ko'rinishlarda kuzatishimiz mumkin.

Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloqiy poklanish iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zamirida tarbiya yotadi". Bugungi yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoyalash ana shu tarbiyaning markaziy muammosiga aylanadi. Bu borada ota-bobolarimizdan bizga tarbiyaviy meros bo'lib kelgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni o'rnini alohida ta'kidlash zarurdir [2. -B. 69.].

Oilada farzand tarbiyasiga ma'naviy jihatdan yondoshishga barcha dinlardagi kabi islom dinida ham katta ahamiyat beriladi. Islom dinida ota-onalarning burchi, farzand tarbiyalashdagi mas'uliyat mezonlari belgilab berilgan. Buning uchun ota-ona farzandiga tug'ilganda chiroyli ism qo'yishi, o'g'il bolalarni xatni qilishi, o'zini taniganidan so'ng axloq odobni o'rgatishi, Allohni tanitishi, Alloh kamolidagi ta'lim tarbiyaga oid o'gitlardan bohobar etishi, halol haromni, gunoh va savobni farqlash, pokiza yurish, kasb-hunar o'rganish hamda dunyoviy ilmlarni egallash kabilarni singdirishi kerak. Sharqona milliy qadriyatlarimizdan biri farzandlarning ota-onaga mehribon bo'lishi, ularning barcha aytgan gaplarini so'zsiz bajarishdir. Hayotda shunday insonlar ham uchrab turadiki, farzandlarini kechayu-kunduz mehnat qilib boqib, voyaga etkazib, uyli-joyli qilishadiyu, vaqti kelsa noqobil farzandlar ota-onani boqishga qurbi etmay qoladilar. Bu esa oilada ma'naviy muhitni oilada yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini, farzandda yoshligidan bilim olib hunar o'rganishga, mehnat qilib o'zini, oilasini, bola-chaqasini boqib, farzandning ota-onaga, qarindosh urug'lariga nisbatan bo'ladigan hurmat-izzat kabi insoniylik tuyg'ulari shakllantirilmaganligidan dalolat beradi. Qanday bo'lmasin farzand tarbiyasida urf-odatlar, milliy qadriyatlarga amal qilgan holda tarbiyaviy yondoshish taqazo etiladi.

O'zbeklarda "Ekkani o'rasan" degan naql bor. Ota-ona tarbiya jarayonida farzandlari qalbiga qanday urug' ekkani bo'lsa, keyinchalik achchiq yoki chuchuk mevalarni o'zlari tatishadi.

Ota-ona, farzandlar o'rtasidagi ishonch, hurmatga asoslangan munosabatlar - oila mustahkamligining yana bir ko'rinishidir. Oilada ma'naviy tarbiyani kuchaytirishda otaning o'rnini beqiyosdir. O'zbek oilalarida otaga bo'lgan hurmat ko'r-ko'rona sig'inish emas, balki uning obro'-e'tiborini qadrlash, unga ishonish va suyanishdir.

Donishmand otalargina farzandlarini bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantira oladi va hayotdagi barcha og'irliklarni aql-idrok, sabr-chidam, g'ayorat va matonat bilan engib o'tishga uchraydi, chiniqtiradi. Qobil farzandlar ota izidn boradi. Otaning do'stlarini, qadrdonlarini hurmat qiladi, ukalarini tarbiyalaydi, qarindosh-urug'lariga mehrlil, oqibatli bo'ladi. Albatta, bularning hammasi ko'pni ko'rgan, aqlli otalarning mehr va muhabbat bilan farzand qalbiga joylangan ma'naviyat nuridan darak beradi.

Sharqona tarbiyada otalar qattiqqo'llik, to'g'risizlik, halimlik, mardlik, botirlik kabi fazilatlarini farzandlar qalbida shakllantirishgan. Masalan, ota uyining to'rida qalin ko'rpachada o'tirgan, farzandlar biror uzoq safarga ketishmoqchi yoki biror ishni qilishmoqchi bo'lsa, avvalo otaning maslahati va rizoligini olishgan. Ota o'tirgan uyning tomiga chiqishmagan, ota o'tirgan uyga ruhsatsiz kirishmagan, otadan oldin gapirishni, otaning oldida yonboshlab yotishni odobsizlik deb bilishgan, hattoki otadan oldin ovqatga qo'l uzatishmagan. Ota oilaning har bir ijtimoiy jabhasida hal qiluvchi rolni o'ynagan. SHuning uchun ham xalqimiz orasidagi "Ota rozi - Xudo rozi" degan hikmatli so'zlar o'zbek oilalarida ma'naviyat mezoni, axloq, odob tushunchalariga aylanib qolgan. Farzand tarbiyalashda ota ham ona ham birdek talabchan bo'lishi kerak. Ona farzandlari oldida umr yo'ldoshini qadrlashi, hurmatini, izzatini o'z o'rniga qo'yishi, oilada sog'lom muhitni yuzaga kelishiga hamda farzandlarni ma'naviy jihatdan etuk bo'lib o'sishlariga sababchi bo'ladi. [3. -B. 45.]

Farzandning burchi va mas'uliyati masalasi milliy urf-odatlarimizda, qadriyatlarimizda, diniy an'analarda bo'lganidek, davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarda ham o'z ifodasini topgan. O'zini xalq oldida burchli, mas'uliyatli deb bilib, ota-onasini unutgan shaxsni ma'naviyatli inson deb bo'lmaydi. Umuman, insondagi Vatanga, jamiyatga, xalqiga hurmat ota-onaga bo'lgan hurmatdan boshlanadi. Ota-onani qarovsiz qoldirgan, ularga azob berib, haqoratlaganlar "Oq padar" deb hisoblangan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida ham ota-onani hurmat qilish yuzasidan quyidagi fikrlar keltiriladi: "Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib jannatiy bo'lib olmagan farzand hor bo'lsin, hor bo'lsin va yana hor bo'lsin".

Shunday ekan, ota-onani hurmat qilishni farzand oddiy deb tushunmaslikni, balki imonlilikning yuqori belgisi deb bilmog'i lozim. O'z ota-onasini rozi qilmaydigan, ularni ranjitadigan farzandning ishi hech qachon olg'a bormaydi va elning obro'e'tiboriga sazovor bo'lmaydi, aksincha, xalq uni yomon so'zlar bilan tilga oladi.

Ota-bobolarimiz oilada bolalarni odamiylik va insoniylik ruhida tarbiyalashga intilib kelganlar. Bu borda milliy urf-odatlarga, qadriyatlarga suyanganlar. Diniy madaniyatimizning sarchashmalaridan bahramand bo'lganlar. Musulmonchilikning maqsadi, inson bolasining odamiylik fazilatlarini yo'qotmaslikka chaqirishdan iboratdir. Islom dinida eng katta savob, bu - insonning ko'ngliga ozor etkazmaslikdir. Ana shuni tushunib amalda bajargan insonni diyonatli inson deyiladi. Diyonat keng

ma'noda azaliy qadriyatimizni bir bo'lagi bo'lib, insonni jamiyat va davlat oldida, millat va xalq oldida mas'uliyatini, avlod-ajdodlari oldidagi javobgarligini hamda ota-onalar oldidagi qarzdorligini eslatib turadigan insoniy fazilatdir. Ana shunga ko'ra o'zbek oilalarida musulmonchilikda qadrlangan va bolalar musulmonchilik qoidalari asosida ma'naviy ruhda tarbiyalanganlar, ota-bobolaridan qolgan urf-odatlariga, qadriyatlarga amal qilingan. Oilada yoshlarni ota-onaga, aka-ukalarga, oa-singillarga, qarindoshlarga nisbatan odob, axloq doirasida hurmat, muomala qilishga o'rgatish milliy tarbiyaning asosiy tomonlaridan biri bo'lgan. Ota-onasiga yaxshi, samimiy munosabatda bo'lgan odam kelajakda o'z farzandlaridan ham shunday hurmat oladilar. [4.-B. 89.]

Shuning uchun oilada farzandning ma'naviy jihatdan etuk bo'lib o'sishi oilada ota-onaning qanday tarbiya berganligiga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimizni qanchalik darajada o'zlashtirganligiga bog'liq deb tushunmoqlik zarur. Oiladagi ma'naviy muhitni shakllantirishda, farzandlar tarbiyasida barkamolikka erishishda ajdodlardan qolgan buyuk merosni ya'ni, urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarimizni qanchalik oilada, farzandlar ongiga singdirsak yosh avlodni har tomonlama komil inson bo'lib etishishiga zamin yaratgan bo'lamiz. Bugungi kunimizning, davlat siyosatidagi bu boradagi asosiy vazifalardan, deb tushunmoqlikni taqazo etadi. Zero, bugunning talabiga javob beradigan avlodni tarbiyalash barchamizning zimmamizga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, an'analar, marosimlar va milliy urf-odatlar xalq hayotining tarkibiy bo'lagidir. Ular o'z mazmuni va shakli bilan zamonaga ham moslashib boraveradi. Urf-odatlarining ijtimoiy hayotda, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda o'zni beqiyosdir. Urf-odatlar, an'ana va marosimlarga o'tmish avlodlarimiz va millatimiz ruhi singdirilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraboyev U. O'zbek xalq bayramlari. -Toshkent: Sharq, 2002.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. -Toshkent: O'zbekiston, 1998.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
4. Maxkamov U. Axloq-odob saboqlari. -Toshkent: Fan, 1994.
5. Кади́рова Х. Б. Миллий идентиклик ва миллий ўзликни англаш муаммоларини социологик тадқиқ этиш методологияси //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. - 2022. - №. SI-1.
6. Kadirova K. RAISING THE LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE OF CITIZENS IN SOCIETY //Science and innovation. - 2022. - Т. 1. - №. B4.